

XITOIY TILIDA RAVISH SO‘Z TURKUMIDA AFFIKSATSIYA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352492>

MEHRIDDINOV Nurshod

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

*This article is devoted to the study of the formation
of adverbs using affixation in modern Chinese*

Xitoy tilida ravish suffiksatsiyasi atigi to‘rtta so‘z yasovchi morfema bilan namoyon bo‘ladi. Bular: 然 “ran”(to‘g‘ri), 地 “di”(yer), 头 “tou”(bosh), 儿 “er” lardir. Ravish grammatik kategoriyasi uchun eng tipik, eng xarakterlilari bu 然 “ran”(to‘g‘ri) va 地 “di”(yer) suffiksals morfemalaridir.

然 “ran”(to‘g‘ri) suffiksi. Bu so‘z yasovchi morfema adverbial suffiksatsiya sohasida eng maxsuldir. U sifat ravishlarining ko‘p sonini yasaydi. Jan Suelian (任学良) “Xitoy tilida so‘z yasalishi” deb nomlangan kitobida 然 “ran”(to‘g‘ri) suffiksi yordamida yasalgan so‘zlarning ro‘yhatini ishlab chiqqan. Bu ro‘yhat o‘z ichiga 70 dan ortiq leksik birliklarni qamrab olgan. Ravish toifasiga mansub bo‘lgan maskur turdagi so‘zlarning semantik xususiyatlarini ko‘rsatib beruvchi bir nechta misollarni quyida ko‘rib chiqamiz. Masalan:

必然 biran (必 “xin” – “muqarrar” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “muqarrar ravishda”);

居然 juran (居 “ju” – “kutilmaganda” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “to‘satdan”, “kutilmagan vaziyatda”);

猛然 mengran (猛 “men” – “g‘ayratli” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “qo‘qqisidan”, to‘satdan);

然 “ran”(to‘g‘ri) suffiksi ravishlarning o‘zagi turli xil ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlarni yasaydi, ya‘ni ushbu suffiks so‘z o‘zagiga qo‘shilgandan so‘ng, yangi yasalgan so‘z ma‘nosi tubdan o‘zgaradi.

翻然 “fanran” (翻 “fan” – “qayiltirmoq”, “aylantirmoq” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “zudlik bilan”);

断然 “duanran” – (断 “duan” – “to‘xtatmoq”, “qisqartirmoq” 然 “ran”(to‘g‘ri) – “qat‘iylik bilan”).

然 “ran”(to‘g‘ri) suffiksi tilda mavjud bo‘lgan bir bo‘g‘inli morfemaga qo‘shilib ikki bo‘g‘inli so‘z yasaydi. Masalan:

忽然 “huran” (忽 “hu” – “to‘satdan”, “kutilmagan holda” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “to‘satdan”, “kutilmagan holda”).

突然 “turan” (突 “tu” – “kutilmaganda” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “kutilmaganda”);

忽然 “huran” (忽 “hu” – “rad etmoq” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “birdaniga”);

惨然 “canran” (惨 “can” – “bahtsiz” ++ 然 “ran”(to‘g‘ri) – “qayg‘uli”);

安然 “anran” (安 “an” – “havfsiz” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “bosiq”, “tinchlik bilan”);

井然 “jingran” (井 “jing” – “quduq” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “to‘liq tartibda”);

断然 “duanran” (断 “duan” – “sinmoq” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “qat‘iylik bilan”);

决然 “jue” (决 “jue” – “hal qilmoq” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “qat‘iylik bilan”, “qat‘iy”);

显然 “xianran” (显 “xian” – “aniq”, “shubhasiz” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “shubhasiz”);

全然 “quanran” (全 “quan” – “butun” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “juda”, “to‘liq”);

徒然 “turan” (徒 “tu” – “izdosh” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “behuda”);

偶然 “ouran” (偶 “ou” – “idol” + 然 “ran”(to‘g‘ri) – “kutilmaganda”);

仍然 “rengran” (仍 “reng” – “hanuzgacha” + 然 “ran” (to ‘g‘ri) – “avvalgidek”).

地 “di” - “joy”, “yer” suffiksi. Ushbu so‘z yasovchi morfema sifat ravishlarini yasaydi.

Masalan:

忽地 “hudi” (忽 “hu” – “kurilmaganda” + 地 “di” – “joy”, “yer”) – “birdaniga”, “kutilmaganda”;

特地 “tedi” (特 “te” – “maxsus” + 地 “di” – “joy”, “yer”) – “maxsus”, “ataylab”;

倏地 “shudi” (“shu” – “tezda”, “bir zumda” + 地 “di” – “joy”, “yer”) – “bir zumda”;

暗地 “andi” (暗 “an” – “sirli” + 地 “di” – “joy”, “yer”) – “sirli”, “maxfiy”.

头 “tou” (bosh) suffiksi harakat o‘rnini, joyini belgilab beruvchi bir nechta hol ravishlarini yasaydi. Masalan:

上头 “shangtou” (上 “shang” – “yuqori”, “tepa” + 头 “tou” – “bosh”, “kalla”) – “tepaga”, “yuqoriga”;

下头 “xiatou” (下 “xia” – “past” + 头 “tou” – “bosh”, “kalla”) – “pastga”;

前头 “qiantou” (前 “qian” – “old taraf” + 头 “tou” – “bosh”, “kalla”) – “oldinda”;

后头 “houtou” (后 “hou” – “orqa taraf” + 头 “tou” – “bosh”, “kalla”) – “orqada”;

外头 waitou (外 “wai” – “tashqi”, “chet” + 头 “tou” – “bosh”, “kalla”) – tashqarida;

里头 litou (里 “li” – “ichkari” + 头 “tou” – “bosh”, “kalla”) – ichkarida.

儿 “er” suffiksi esa atigi bir nechta olmosh ravishlar tarkibiga kiradi va quyidagi bir qator misollarni yaratishda qo‘llaniladi. Masalan:

这儿 “zher” (这 “zhe” – “bu” + 儿 “er”) – “bu yerda”;

那儿 “naer” (那 “na” – “ana u” + 儿 “er”) – “u yerda”;

哪儿 “nar?” (哪 “na” – “qaysi” – 儿 “er”) – “qayerda?”

多会儿 “duohuir” (多 “duo” – “ko‘p” (miqdor) + 会 “hui” – “qila olmoq” (modal fe‘l) + 儿 “er”) – “qachon?”.

Shunday qilib, affiksatsiya va yarim affiksatsiya – xitoy tilida so‘z yasash jarayonining samaradorligi jihatidan ikkinchi o‘rinda.

Affiksatsiyaning o‘zi kabi, affiksatsiya jarayono ham bir nechta yaqqol namoyon bo‘lgan hususiyatlarga ega. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: yangi affikslar va yarim affikslar mustaqil ma‘noli so‘zlar va morfemalardan kelib chiqadi; mustaqil ma‘noli morfemalar – etimonlar ega bo‘lgan konkret leksik ma‘nolari asta-sekin yo‘qolib bormoqda (redublikatsiyalanmoqda).

Affiksalar abstract (ba‘zan esa ko‘chma) ma‘noga ega, yangi affikslar, yarim affikslar katta so‘z yasash imkoniyatiga ega. Ular bilan tuzilgan hosila so‘zlarning modllari turli-tumandir.

Bunda hosil qiluvchi negiz bo‘lib, mustaqil ma‘noli morema, turli so‘zlar va hatto so‘z birikmalari hosil qilishi mumkin; so‘z yasash jarayonoda yangi affikslar, yarim affikslar ko‘p xollarda sinfga ajratuvchi vazifani ham bajaradi; agar ilgari affikslar yordamida hosil bo‘lgan xitoy tili so‘zining strukturasi “bir bo‘g‘inli + affiks” formulasi bilan ifodalanishi mumkin bo‘lgan va affiksatsiya xitoy tilining monosillabizmdan polisillabizmga o‘tishi usullaridan biri sifatida olib qaralgan bo‘lsa, u holda affiksli yangi hosila so‘zning strukturasi quyidagi formula bilan ifodalanishi mumkin: “bir bo‘g‘inli| ko‘p bo‘g‘inli+ affiks/yarimaffiks”

REFERENCES

1. Горелов В.И «Лексикология китайского языка». - Москва. 1984 г.
2. 陆志韦。 “汉语的构词法”。 - 北京, 1964 年.
3. 汉俄词典。 - 北京, 1988 年.
4. 现代汉语词典。 -北京 1979.

5. Коротков Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка – Москва, 1968.
6. 任学良。汉语造词法。- 北京, 1981年。
7. Яхонтов С. Е. Категория глагола в китайском языке. – Л. 1957.
8. С. Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2022.
9. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In *Resent Scientific Investigation* (pp. 69-73).
10. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с* (p. 361).
11. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
13. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
18. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
19. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
20. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
21. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
22. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
23. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019